



## PSIXOLOGIYA KASB SIFATIDA

**Odilova Sarvara Qaxramon qizi**  
*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kasb tushunchasining hayotdagi ahamiyati aylib o‘tilgan. Tasodifyi yoki to‘liq anglanmagan holda kasb tanlash nafaqat inson, balki jamiyat ravnaqi uchun ham zarardir. Shunday ekan, avvalo, “Kasb” o‘zi nima ekanligini bilib olish lozimligi ushbu maqolamizda yoritilib berilgan.*

**Kalitso’zlar:** *Psixologiya, kasb, psixolog, psixolog-pedagog, psixologiya o‘qituvchisi.*

**Аннотация:** В этой статье упоминается важность понятия профессии в жизни. Выбор профессии случайным или не до конца осознанным образом вредит не только человеку, но и процветанию общества. Таким образом, в первую очередь проясняется, что нужно знать о том, что такое "профессия".

**Ключевые слова:** *психология, профессия, психолог, психолог-педагог, учитель психологии.*

**Abstract:** *this article mentions the importance of the concept of a profession in life. Choosing a profession randomly or not fully understood is a harm not only for a person, but also for the prosperity of society. Therefore, first of all, it is illuminated that it is necessary to find out what the "profession" itself is.*

**Keywords:** *psychology, profession, psychologist, psychologist-educator, psychology teacher.*

### KIRISH

Inson hayotida kasb tanlash muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Mashhur psixolog S.M.Bogoslovskiyning fikricha, kasb–bu shunday faoliyatki, shaxs u orqali jamiyat hayotida faol ishtirok eta oladi va inson uchun moddiy manba vazifasini bajaradi va kasb orqali shaxs o‘zini o‘zi namoyon etadi. Psixolog E.A.Klimov kasbning turli jihatlarini keltirib o‘tadi: Kasb insonlarni birlashtiruvchi omildir, ya’ni bir xil muammo va bir xil hayot tarzini olib boruvchi shaxslar.

Albatta mutaxassislarning turmush darajasi turlicha bo‘lishi mumkun, lekin psixolog kasbi vakillarining bazaviy qadriyatlar tizimi deyarli bir xil bo‘lishi kerak. Kasb insonning hayot davomining bir xilligidir. Kasb psixologning kasb faoliyatida obyekt va predmetni ajratib olish bilan bog‘liq kuch sohasidir. Bu yerda aynan psixolog o‘zini qaysi faoliyat sohasida o‘zini to‘la namoyon qila olishi xususida gap ketmoqda. Kasb reallik sifatida subyekt mehnatida ijodiy shakllanadi. Bu shuni anglatadiki, ko‘p narsa muayyan shaxsga ham bog‘liqdir. Kasb shaxsning o‘zligini namoyon qiluvchi sohadir. Kasb so‘zi lotincha “ommaviy so‘zlashuv” so‘zidan olingan. E.A.Klimovning fikricha “demak, kasb fenomenini negizida umumiy va ijtimoiy psixologiyaning predmeti yashiringan”. Kasb reallik sifatida subyekt mehnatida ijodiy shakllanadi.

Psixologning fandagi o'rni aynan uning fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Psixolog kasbining quyidagi mutaxassisliklari bo'ladi: ijtimoiy psixolog, klinik psixolog va boshqalar. Psixolog olim German Ebingauz ta'biri bilan aytganda: "psixologiyaning tarixi uzoq, ammo yaqin o'tmishta ega". Psixolog kasbining vujudga kelishini bevosita V.Vundt tomonidan Leyptsig universiteti qoshidagi laboratoriyalarning ochilishi (1879) bilan bog'lasak bo'ladi. Ilk bor G'arbda paydo bo'lgan. Psixolog kasbi endi mashhurlikni qo'lga kiritayotgan kasbdir. Psixologiya inson va uning holati haqidagi fan ekan, psixolog ushbu fanning bilimdoni "insonlarni ichini tashqi qiyofasidan bilib oladigan" shaxs. Psixolog o'zini mukammal biluvchi va har qanday vazyatda o'zini boshqara oluvchi insondir. Psixologlarning vazifasi - qiynalgan, hayot yo'lida adashgan shaxslarga maslahat berish va nasihatlar bilan yo'naltirishdir. Fizik olim Albert Eynshteyn mashhur shveytsariyalik psixolog Jan Piaje bilan tanishib bolalar psixologiyasi borasida suhbatlashganidan so'ng shunday xulosaga kelgan ekan: "Men siz tadqiq etadigan obyektdan ko'ra osonroq obyekt ustida ishlar ekanman". Psixologik bilimlar boy va serqirra, biroq uzoqqa bormaydigan qarama-qarshiliklarga boy. Shuning uchun ham psixologik ta'limdan "so'nggi haqiqatni "kutish noo'rin. Barcha ma'lumotlar ustida tinimsiz tadqiqot olib boriladi, shu boisdan ta'limga passiv emas ijodiy yondashish darkor. Psixolog o'zgalar xulq-atvori, hislari, fikrlarini boshqara oladigan va maxsus texnikalarni (masalan, gipnoz) qo'llay oladigan shaxs.

Psixolog insonlarga o'zaro ishonch, samimiylit bera oladi. Nizoli vazyatlarni yumshatuvchi muayyan metodikalar qo'llay oladi. Psixolog faoliyati jarayonida bir tomonidan o'zining predmetini (psixika, shaxs) yaxshi bilishi, boshqa tomonidan esa u xizmat qilayotgan jabhani o'ziga xosligini hisobga olishi zarur. Amaliy psixologning kasbiy mahorati uning bilimlari texnikasi va inson muomalasining psixoterapevtik texnologiyasini yaxshi bilishida deb hisoblaniladi. Psixolog suhbatga tez kirisha oladigan insonlarni o'ziga jalb qila olishi, ularni ishontira olishi zarur bo'ladi. Demak, bo'lajak amaliy psixologlar uchun birinchi talab ularning muloqot qila olish qobiliyatini mavjudligi hisoblanadi. Kasb tushunchasini biz quyidagilar bilan tavsiflashimiz mumkun. Ya'ni, kasb bu mehnatniing alohida turi bo'lib, psixologdan qator mutaxassislar bilan hamkorlik qilishini talab etadi. Kasb doimiy tayyorgarlikni talab etuvchi mehnatdir. Kasb bu ijtimoiy foydali mehnat hisoblanadi va biz shuni aytishimiz mumkunki, kasb shaxsga jamiyatda muayyan mavqe beruvchi mehnatdir. Psixologning o'z imkoniyatlarini amalga tatbiq etishni eng ideal variant bu o'zi murakkab vaziyatda bo'lsa ham o'zgalar manfaati uchun xizmat qilishdadir. Psixolog chiroqli kiyingan, momilali insondir. Psixologlarning kasbiy faoliyati uchun mahsus xona beriladi. O'quv muassasalarida psixologning xonasi boshqa honalardan ajralib turishi kerak. Iloji boricha maktablarda shovqin-suron kelmaydigan chetroq tomonidan xona ajratiladi. Psixologning xonasi shunday did bilan bezatilishi kerakki, u insonga kayfiyat bag'ishlashi lozimdir. Psixolog turli yosh davrlarida inson his-tuyg'ularining

o‘ziga xosligini, kishilar bilan samarali muloqot o‘rnatish sirlarini biluvchi shaxs hisoblanadi. Shaxsiy, oilaviy va boshqa shu kabi muammolarda psixologik yordam bera oluvchi shaxs ekanligini hammamiz bilishimiz kerak. Pedagogik psixologiya bolalar va kattalar ta’lim-tarbiyasining psixologik xususiyatlarini shuningdek, uzlucksiz va kasbiy ta’limning muammolarini qamrab oladi. Psixologning axloqiy kodeksi psixologik xizmatlarning jamiyatning turli tarmoqlari bilan o‘zaro aloqalarining muhimligini ta’kidlaydi. Asosiy to‘rtta axloqiy printsipga quyidagilar kiradi: bu insonlarning qadr-qimmatini hurmat qilishini aytishimiz mumkun. Undan tashqari psixologda mas’uliyatlilik va g‘amxo‘rlik hissi yuqori bo‘lishi kerak va munosabatlarning yaxlitligini aytishimiz mumkun. Ijtimoiy adolat va jamiyat oldidagi javobgarlik hissi ham mavjuddir.

Xulosa : Demak, Psixologiya kasb sifatidagi ahamiyati judda katta. Chunki, psixologiya kasbi bu zamon talabidan kelib chiqqan holda rivojlanib kelmoqda. Psixolog hamma sohada o‘zining kasbiy faoliyatini davvom ettirishi mumkun. Shular jumlasidan psixolog : maktab, tashkilot, ichki ishlar, bog‘chalarda, zavod va fabrikalarda ish faoliyatini davom ettirishi mumkun. Psixolog ma’lum tajribalarga ega, o‘zini kim ekanligini anglay olgan shaxs hisoblanadi. Etika va estitika jihatdan ideal insondir. Psixolog muomilali, odob-axloq qoidalariга rioya qilishi kerak. Psixolog o‘zgalar xulq-atvori, hislari, fikrlarini boshqara oladigan va maxsus metodikalarni qo’llay bila oladigan shaxsdir. Kasb shaxsning o‘zligini namoyon qiluvchi sohadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G‘oziyev, “UMUMIY PSIXOLOGIYA” 2002-yil . 6-7 betlar.
2. M.E.Zufarova “UMUMIY PSIXOLOGIYA” 2010-yil. 11-13 betlar.
3. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova “UMUMIY PSIXOLOGIYA”. Toshkent-2010.